

SOTSIAL PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

Mambetiyarova Venera

Qaraqalpaq məmlekətlik universiteti Pedagogika həm psixologiya kafedrası oqıtılıwshısı.

Tursinbaeva Jansulu

Qaraqalpaq məmlekətlik universiteti 1-kurs student.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11181545>

Annotatsiya. Maqola shaxs muammosini sotsial psixologik aspektidan o'rganib chiqaradi va insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida o'zgarishlarni tushunishni maqsad qilar. Ushbu maqola jamiyatdagi o'zgarishlarni tahlil qiladi va insonning jamiyatga ta'siri haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Sotsial psixologiya, shaxs, muammo, tushuncha, jamiyat, normativlar, shaxsiyat.

PERSONALITY PROBLEM IN SOCIAL PSYCHOLOGY

Abstract. The article examines the problem of personality from the social psychological aspect and aims to understand the changes in the interaction of a person with society. This article analyzes changes in society and offers theoretical and practical information about the impact of man on society.

Key words: Social psychology, person, problem, concept, society, norms, personality.

ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТИ В СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В статье рассматривается проблема личности с социально-психологического аспекта и ставится цель понять изменения во взаимодействии человека с обществом. В данной статье анализируются изменения в обществе и предлагаются теоретические и практические сведения о влиянии человека на общество.

Ключевые слова: Социальная психология, человек, проблема, понятие, общество, нормы, личность.

Sotsial psixologiyada "shaxs muammosi" deyilgan konsept o'z ichiga insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida uzoq muddatda o'tkazgan o'zgarishlarni o'rganishni maqsad qiladi.

Bu, insonlarning jamiyatda qanday o'zgarishlar o'tkazishi, qanday holatlarda o'zgarishlar ro'y berishi, jamiyatning tajribalari va normativlaridan qanday holatlarida foydalanishi kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

Bu muammo, insonning o'zining shaxsiyatini shakllantirishda va uning jamiyatdagi o'rnini aniqlashda juda muhimdir. Misol uchun, shaxs muammosi, insonning qanday holatda o'zini jamiyatning aksariyatidan ajratishi, yaqin do'stlari, oilasi yoki jamiyatining qanday baholangani bilan bog'liq bo'lishi, ya'ni insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari o'zgarishi va buni tushunish, o'rganish uchun kerakli hisoblanadi.

Biror insonning shaxsiyati, xarakteri, o'zining jamiyatdagi o'rniga qarab, yaqinlarining munosabatlari va jamiyatning normativlari bilan bog'liq o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarishlar odadta o'zining o'zini aniqlash, o'ziga qarshi his-tuyg'ular va o'zgarmalar ko'rsatish orqali o'rganiladi. Sotsial psixologik tadqiqotlar va teoriyalar, shaxs muammosini o'rganishda va tushunishda yordam beradi.

Shaxs muammosi, insonlarning jamiyatdagi o'z-o'zini o'rganish jarayonida o'zining identifikatsiyasi, qabul qilishi, boshqa insonlar bilan aloqasi, jamiyatning qabul qiladigan normativlari kabi asosiy tushunchalar bilan bog'liqdir. Sotsial psixologlar shaxs muammosini o'rganishda, o'zaro amaliyotlar, tajribalar va tushunchalar asosida ilmiy dalillar to'plashadi va jamiyatning bireylarga ta'siri va o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi.

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llanilladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi.

Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning sotsialligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» — «aqlli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish.

Charlz Darvin tabiri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita sotsial muhiti va uning sotsial normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu sotsial olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan sotsial xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'l mish olimlarning butun bir avlodni ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. [1.182]

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646—1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. [2.104]

Galtondan keyingi tadqiqtlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq-tonal yoki keskir (qo'pol) tonal bo'lmaning tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vyetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin. [3.65]

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni Ijtimoiy psixologiya, avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday

qonuniyatlarga bo'y sunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi.

Guruuning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'lyo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. [4.12]

Shaxs psixologiyasining shakllanishiga u mansub bo'lган ma'lum bir ijtimoiy guruhlarning munosabatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday o'zaro ta'sir va muloqot jarayonida shaxslarning bir-biriga ta'siri sodir bo'lishi bilan birgalikda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga, o'zining shaxsiy sifatlariga nisbatan o'z qarashlariga, ijtimoiy ustakovkalariga ta'sir o'tkazishi sodir bo'ladi. Ma'lum bir ijtimoiy muhitda yashar ekan, shaxs u yerda o'ziga xos o'ringa, obro'ga, rolga ega bo'ladi. Hozirgi zamон ijtimoiy psixologiyasi sohasida shaxsni o'rganish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar masalasi, ayniqsa bu boradagi amaliy vazifalar ijtimoiy psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'naliшlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida shaxsni o'rganishga nisbatan ikki xil ijtimoiy psixologiya - «Psixologik ijtimoiy psixologiya» va «Sotsiologik ijtimoiy psixologiya» mavjud. Bu yo'naliшlар bir-biriga o'xshasada, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustakovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiyruhiv kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish, xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruхlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urg'u beriladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tushuntirish va ko'rsatish maqsadida bu sohada ish olib borayotgan barcha olimlar o'z qarashlarini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan.

REFERENCES

1. Aronson, E., Wilson, T. D., & Akert, R. M. (2019). Social psychology (10th ed.). Pearson.
2. Baumeister, R. F., & Bushman, B. J. (2017). Social psychology and human nature (4th ed.). Cengage Learning.
3. Myers, D. G., & Twenge, J. M. (2018). Social psychology (13th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Hogg, M. A., & Vaughan, G. M. (2018). Social psychology. Pearson.
5. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
6. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.